

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!N: 28 (67245)
2019-yil 15-iyul

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

KITOBGA O'RNATILGAN MONUMENT



O'zbekistonda ilk bor Qarshi shahridagi Qarshi davlat universiteti ro'parasida o'rnatilgan «Kitoblar monumenti»ning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. 12 dona eng nodir asarlar to'plami aks etgan ushbu monumentda o'ziga xos ramziy ma'no mujassam. Bu yerda buyuk bobokalonlarimiz Alisher Navoiy, Abu Ali Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Oripov, Sharof Rashidov kabi alloma va mutafakkirlar, el ardoqlagan taniqli shoir va yozuvchilarning nomlari zikr etilgan. Bundan tashqari, monumentdan jahon adabiyotining yetakchi namoyandalarining asarlari ham o'rin olgan. Bu ajoyib haykaltaroshlik asari barchamizni yana bir bora kitobxonlikka, mutolaaga chorlayotgandek, go'yo.





Purviqor Zomin tog'lari yoshlarning shodon kulgilari, jarangdor she'r ohanglari-yu, ezgu tilaklari bilan to'lib-toshdi. Nega desangiz, ayni shu kunlari «O'rikli soy» oromgohida Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari tashkil etildi. Bu galgi seminar da Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardagi ijod maktablaridan o'quvchilar ishtirok etdi. Yosh ijodkorlar nazm, nasr, dramaturgiya, badiiy publitsistika, badiiy tarjima, bolalar adabiyoti, adabiy tanqid sho'balarga bo'linib, ularga fidoyi, mahoratli ijodkor va olimlar rahbarlik qilishdi. Seminar doirasida mahorat darslari, mushoira kechalari, Zomin sharsharasiga sayohat tashkil etildi. Qutlug' uydan quruq ketilmaydi, degandek, ishtirokchilarga sertifikat, Abdulla Oripov va Halima Xudoyberdiyevaning «Tanlangan asarlar» to'plamlari kabi sovg'alar hamda 100.000 so'mdan pul mukofotlari berildi.

ZOMIN TOG'LARIDAN KO'NGLI TOG' BO'LGAN YOSHLAR

Xo'sh, shu bilan tugadimi? Yo'q, bu raqamlarni seminar haqida ilk tasavvurlaringizni shakllantirish uchun keltirdim. Asl anjuman shavqini faqatgina jarayon ichida yurgan odamgina his qilishi mumkin. Garchi ijodkor bo'lsangiz ham tabiat chiro-yini ta'riflashingiz qiyin bo'lib qolarkan. To'rt tomoningiz zumrad yanglig' archalar, gul-u g'iyohlar, boshingizda feruzadek musaffo osmon, qo'l cho'zsangiz yetgudek, o'lisda olmosday muzliklar yarqirib turibdi... Havoning salqinligi ham odamga hush yoqadi. O'rikli soyning yaxna suvlaridan simirish insonga zavq bag'ishlaydi. Endi yoshlar qalbi ob-havosiga nazar solsak, u yer Zominday barqaror emas, nazarimda. Har dilda har holat. Kimdir Azim Suyundan maqto'v eshitganidan xursand, kim-

dir Xosiyat Rustamovaning she'r o'qishidan hayratda, nogoh Anvar Obidjonning qarshisidan chiqib hayajonlangan qancha-yu, Erkin A'zamning lutfidan yayragan qancha... Kechki mushoirada Abduvali Qutbiddinovni qayta-qayta she'r o'qitgan ham, Rustam Musurmonning xalqona ohanglariga qiyqirib, qarsak chalgan ham, Rustam Mirvohid g'azallariga saydo bo'lgan ham – biz yoshlar! Soy bo'yidagi supaning gavjumligi ham tabiiy. Axir bu yerda yoshlar ustoz ijodkorlar Sirojiddin Sayyid, Sa'dulla Hakim, Ahmadjon Meliboyev, Mahmud Toir, Luqmon Bo'rixon, Zebo Mirzodan dastxat olishmoqda. Abdusaid Ko'chimov, Muhiddin Omon, Sobir O'nar, Botir Ergashev bilan suratga tushayotganlar ham bir davra... Ana shunaqa! Shu vaqtgacha darsliklarda, kitob-

larda o'qib kelgan ijodkorlar bilan ko'rinish, suhbatlashish baxti nasib etgani yurtimizda adabiyotga berilayotgan katta e'tiborning amaliy natijasidir. O'ylab ko'ring, uch kun mobaynida shunday buyuk ijod darg'alaridan bilim olgan, tengdoshlarida o'zlarining yutuq va kamchiliklarini ko'zguday ko'rgan yoshlar qalbida qanday jo'shin ilhom uyg'ondiykin? Bu ilhomdan ertaga, albatta, nodir asarlar yaraladi. Yoshlar ham har bir damni g'animat bilib, do'stlar orttirishga, tajriba almashishga astoydil harakat qilishdi. Qarangki, o'zaro do'stlik orqali butun Vatanimiz bo'ylab, bir ildiz yoyildi-ki, bu ildizdan ertaga chinorlar unib chiqadi.

Seminar bir-biridan qiziq hodisalar bilan qaynab turgan bir paytda oromgohga ustoz Abdulla Oripovning rafiqasi Hanifa Mustafoyeva hamda O'zbekiston Qahramoni Muhabbat Sharapova

tashrif buyurdi. Bu uchrashuv qalblarga bir o't bo'lib tushdi. Mazmunli suhbatlardan bahramand bo'ldik. Yana aytish kerakki, Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan «Qagnus» to'garagi o'quvchilarining yosh ijodkorlari bizni hayratga soldi. Xususan, Abdulla Qahhorning «O'jar» hikoyasi va G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasiga zamonaviy yondashib namoyish etilgan ko'rinishlar ham kulgiga, ham ibratga sabab bo'ldi.

Muhtaram Prezidentimizning quyidagi hikmatli so'zlari Zomin seminarining

bosh shoriga aylandi: «Yosh ijodkorlarning mustaqil Vatand adabiyotiga Jizzax diyorida qo'yayotgan qadamlari qutlug' bo'lsin!»

Mana shunday yuksak ishonchni oqlash har bir ishtirokchining maqsadiga aylangan bo'lsa, ne ajab?! Zomin tog'laridan ko'nglimiz tog' bo'lib qaytdik!

Otabek BAKIROV,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabi bitiruvchisi, Zomin seminari ishtirokchisi



O'QUV QUROLLARI ISHLAB CHIQRISH ORZUM

Men bo'sh vaqtlarimda turli buyumlar yasashga juda qiziqaman.

Yozgi ta'tilda esa dizaynerlik bilan ham shug'ullanib, munchoqlardan ajoyib kashtalar tikiyapman. Hatto, o'yinchoq raketa, mashinalarning qanday tayyorlanishiga qiziqqanim bois ularni ham yasab ko'rganman.

Kelajakda o'quvchilar uchun bir-biridan chiroyli va qulay o'quv qurollarini ishlab chiqarishni orzu qilaman. Qiziqishlarim va orzularim bir talay. Ularga erishish uchun hozirdanoq yanada ko'proq o'qishim kerakligini ham bilaman.



Saida ZOKIROVA,
Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 213-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Hovlimiz juda katta, go'yo bog'ga o'xshaydi. Uning chetlarida bobom Parkentdan olib kelgan archalar qator ekilgan.

NIHOLGA MEHR KERAK

Hali maktabga ham bormagan edim, dugonalarim bilan ana shu archalarning soyasida «xola-xola, do'xtir-do'xtir» o'yinlarini o'ynardim. Shunda har safar qiyshiq turgan bir archa e'tiborimni tortardi. O'zi shunday o'sayogan bo'lsa kerak-da, deb o'ylardim.

Kunlarning birida dadam ana shu archani parvarishlay turib gap ochdi:

– Qizim, qiyshiq o'sayotgan archani ko'ryapsanmi?
– Ha, dada, ko'ryapman, – dedim.

– Bundan bir-iki yil avval hovlimizda qurilish ishlari bo'lganida, bir quruvchi be-xosdan uni sindirib qo'ygandi. O'shanda archa-

ni olib tashlab, boshqasini ekmoqchi bo'lganimda bobom norozi bo'lib, «singan nihollarni bog'lab parvarishlash kerak», deya uqtirgan edilar.

Chindan ham yosh nihollar yosh avlod demakdir. Singan joylari tezda bitadi, tuzaladi. Faqat ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish va mehr bilan parvarishlash zarur, – deya ta'kidladilar dadam. Men esa:

– Dada, bobom to'g'ri aytgan ekanlar, qarang archani, ancha qaddini tiklab, hovlimizga fayz bag'ishlamoqda, – dedim dadamdan xursand bo'lib.

Durdona MIRSOATOVA,
Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchisi



BOLA BO'LSA SHO'X BO'LSIN MI?

«O'yindan o't chiqdi» yoxud zamonamiz yoshlari
Gerostratga havasmandmi?» maqolasini o'qib...



Bezori
o'smirlar tramvaydagi keksalar,
ayollar va bolalarning o'rniga o'zlarining yaqin-
larini qo'yib ko'rishlari kerak edi.

Yoshlik nima uchun kerak, u nimaga beriladi? Faqat sho'xlik, o'yin-kulgi uchun deydiganlar qattiq adashishadi. Zamonamiz jurnalistlaridan biri: «Tanloving noto'g'ri bo'lsa, to'lovi umring», degan edi. Yoshlik bilim olish, o'qish, intilish va izlanish uchun berilgan. Afsuski, ba'zi tengdoshlarimiz bu davrni baxtli kelajak poydevorini tiklash uchun ayni payt ekanligini unutib qo'yib, bekorchi ishlarga vaqt sarflashmoqda. Hatto, ba'zi tengdoshlarimizning quyush-qondan chiqib, ko'rsatayotgan xurmacha qiliqlarini sira kechirib bo'lmaydi.

Bugungi texnologiya asrida telefondan voz kechish emas, balki undan unumli foydalanish zarur. O'zim ham internet orqali ilm sohasidagi yangiliklar, axborotlar olaman.

Internet tarmog'idan faqat yomonlik, insonlarga ziyon keltirish hisobiga shov-shuvlar tarqatish orqali mashhur bo'lish uchun foydalanilmaydi. Xalqimiz orasida, «Bola bo'lsa, sho'x bolsin...», degan ibora bor. Lekin bu: «Istaganingni qil, hamma narsa mumkin», degani emas-ku. Har narsada me'yor bo'lish kerakligini unutib qo'ygani ayrim tengdoshlarimiz odamlarga taniqli bo'lish uchun tarqatayotgan videolari mashhurlik emas, balki tarbiyasizlik va bezorilikning ochiq namunasidir. Nahotki ular ba'zi tengdoshlaridek sport musobaqalarida jahon miqyosida g'olib bo'lib, butun dunyoga tanilishni istashmaydi? Bir tengdoshimizni Yurtboshimiz e'tirof etmoqdalar, yana biri Prezident sovrinini qo'lga kiritib el nazariga tushmoqda. Samarqandlik ba'zi o'smirlar esa mashhur bo'lish uchun jamoat joyida «hunar» ko'rsatishibdi. 5-iyul kuni internet orqali Samarqand shahrida tibbiy niqob kiygan o'spirin bekatda tramvayga yugurib chiqib, yo'lovchilarning yuziga noma'lum suyuqlik sepib, qochib ketgani aks etgan videoxabar tarqalgan. Videoda yo'lovchilar vahimaga tushib qochib ketgani va dastlabki xabarda bir necha nafari hushini yo'qotgani aytilgandi. Keyinroq bu holat Samarqand shahridagi 33-umumta'lim va boshqa maktablarning 7-, 8-, 9- va 11-sinf

o'quvchilari tomonidan «sahnalashtirilgani», sepilgan vosita esa beziyon havo tozalovchi, «hushidan ketgan» bolalar rejalashtirilganidek, «aktyorlik» qilishgani ma'lum bo'ldi. Bezori o'smirlar tramvaydagi keksalar, ayollar va bolalarning o'rniga o'zlarining yaqinlarini qo'yib ko'rishlari kerak edi. Bunday ishlar ishonib aytamanki, kitob o'qimagan bolalardan chiqadi. Yusuf Xos Hojibning mashhur «Qutadg'u Bilig» asarida shunday hikmat bor:

«Nodon aqli bamisli sahro,
Yashnamas oqizib quyilsa daryo»...

Samarqand shahrining bu o'quvchilari ona shahrining yuzi emasmi? Savollar juda ko'p. Bu savollar menga Abdulla Qahhorning «Bemor» hikoyasini yodimga solib yubordi.

Insondan faqat yaxshiliklar qoladi. Odamlar bir-birlarini yaxshiliklari bilan eslashadi. Bejizga: «Yaxshidan bog' yomondan dog' qoladi», deyishmaydi. Internet tarmog'idagi maqolada, «Yoshlar Gerostratga havasmandmi?» degan savol qo'yildi. Yo'q, yoshlar buyuk ajdodlari va bunyodkor ota-bobolariga, ularning ibratli hayot yo'lga havasmand. Buyuk shoirimiz G'afur G'ulomning «Vaqt» she'rida Gerostratning qilmishini misol tariqasida bizga ibrat qilib ochib berganlar:

Aziz asrimizning aziz onlari,
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir shoh satrlar-la,
Bezamoq chog'idir umr daftarin.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek,
Diana ma'badin yoqmoq shart emas.
Barchaning baxtiga o'zlikni jamlab,
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak, bas.

Otabek ORTIQOV,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 169-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

USHBU SAHIFANI OTA-ONANGIZ BILAN O'QING

Kunlarning birida uyga qaytar ekanman, odatdagidek, shahardan mahallamizga qatnaydigan mashinalardan biriga o'tirdim. Yoninga esa istaralikkina bir ayol qo'lida yosh bolasi hamda 7-8 yoshlar chamasidagi farzandi bilan joylashdi. Haydovchi yana ikki yo'lovchining kelishini kutar ekan, yuzlari lo'ppigina go'dak g'ingshiy boshladi. Tanishib ulguranim - Dildora opa farzandini ovutishga qancha harakat qilmasin, bola bezovtalanaverdi. Shunda bolaning akasi Diyorbek:

- Aya, menga bering ukamni biroz ko'taray, sizni qiynab yubordi, - dedi.

DIYORBKNING SABOG'I

Aka ukasini o'ynata boshladi. Orada yana ikki yo'lovchi kelib o'rindiqlar to'ldi-yu, biz yo'lga tushdik. Dildora opa ikki bolasini ham tizzasiga olib o'tirardi. Shunda ziyrak va onasiga mehribon Diyorbek o'rnidan turib, mashinaning old kursisini ushlab tik turdi. Onasi uni o'tqazishga qancha urinmasin, «yo'q, aya, men o'tirsam oyog'ingiz og'rib qoladi, men katta bo'lib qolganman-ku ancha», deya javob berdi. Shu payt o'yga toldim. «Men ham onamga mehribon farzand bo'layotganmikanman? Onam uchun nima qilyapman?» degan savollar xayolimni qurshab oldi. Bir dam bolaligimga qaytgim keldi. Onam yopgan issiq kulchalarni suvga botirib, yugurgancha ko'chaga chiqib ketganim, qosh qorayguncha o'ynaganim, xar-xasha qilib, onamga atlas ko'ylak tikirganim-u, ishdan charchab kelgan volidamni ertak aytishga majbur qilgan bolaligim haqida o'yladim. Shunday qilib, manzilga yetganimni ham bilmay qoldim. Mahalladan kirib borar ekanman, terakzorli uy tomondan kelayotgan baland ovozlilar xayolimni to'z'g'itdi. Ne ko'z bilan ko'rayki, ko'k darvoza yonida saksondan oshgan, ko'zlari ichiga botgan, bukchayib qolgan buvijon oltmishga yaqinlashib qolgan o'g'lidan dakki eshitib turardi.



- Ko'chaga chiqib olasiz-da, keyin kelinlaringizni chaqiraverib qo'ymsiz, uyda tinchgina o'tirsangiz bo'lmaydimi, ona? - dedi o'g'il qo'polligini qo'ymay.

- Bolam, nima qilay, kimgadir suyanmay yura olmasam?! - xijolat bo'ldi ona.

Men bu holatni xuddi yerga qoqilgan qoziqday o'rnimdan qimirlamay kuzatardim. Qulog'im ostida esa Diyorbekning onasiga mehr bilan aytgan gaplari jaranglardir. Shu holatda qancha turganimni o'zim ham bilmayman...

Mavluda OMONQULOVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi
Yangiyer akademik litseyi o'quvchisi

USTOZLIK - ULUG' MARTABA

Kattalar doimo duo qilayotganida: «Martabang ulug' bo'lsin!» deyishsa, «katta odam» - rahbar bo'lishimizni tilayapdi, deb o'ylardim. Ammo, bu so'zning mohiyatini bir voqea sabab chuqurroq anglab yetdim.

Bir kuni onam yaqin do'stim haqida so'rab qoldi. Uning o'qituvchi bo'lib ishlayotganini aytganimda esa «Yaxshi martabaga erishibdi», deya mamnun bo'ldi. Demak, ustozlik martaba ekan-da, o'ylab qoldim men. Aslida ham shunday. Ustozlik rutbasi baland.

Bugun men sizlarga ana shu kasb egalardan biri haqida so'zlab bermoqchiman.

Hikoyamni ustozning bolalik yillaridan boshlasam Siz aziz o'quvchilarga yanada ma'qul bo'ladi, nazarimda. Aslida, Saidali Toshev o'quvchiligida «konstruktor bo'laman», deya orzu qilgan edi. U matematika faniga shunchalik qiziqib ketdiki, hujjatlarini Dushanbe Pedagogika institutiga topshirdi. Oliyohni tugatib, o'zi tahsil olgan 18-maktabda dars bera boshladi. Lekin oradan ko'p o'tmay, yoshlikdagi qiziqishlari ustun kelib, Gidrometeorologiya markaziga muhandis bo'lib ishga kirdi. Shu yerda nimalardir kashf qilishni, biror qurilma yasashni istadi. O'n yil davomida o'z kasbining ustasiga aylandi. Lekin jo'shqin maktab hayoti, bolalarga mehr uni yana maktabga qaytardi. Matematika o'qituvchisining jamoat ishlarida ham faolligi, o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashi, fidoyiligi, iste'dodli bolalarni to'garaklarga jalb etishi ustozga faqat hurmat va ehtirom keltirdi. Ayni damda ustoz ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari vazifasini bajarib kelmoqda.

O'z baxtini xalqning farzandlariga ma'rifat ulashishdan topgan, hamon Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 18-umumta'lim maktabida faoliyat yuritayotgan Saidali aka singari insonlarni haqiqatda ulug' martabaga erishgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Komil JONTOYEV, jurnalist



Jonkuyar ustoz - Saidali Toshev

Dunyoda inson ongi, kamoloti uchun adabiyot va san'atning ta'siridan kuchliroq kuch yo'q. Prezidentimiz targ'ib qilayotgan beshta tashabbusning birinchi yo'nalishi bejizga adabiyot, san'at, kinoga qaratilmagan.

BOLALAR KINOSI HAQIDAGI O'YLARIM

Bugun bu sohalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilyapti. Lekin bolalar adabiyoti, ayniqsa, bolalar kinosi meni tashvishga soladi. Bolalar kinosida sezilarli bo'shliq yuzaga kelayotgandek, nazarimda. Bolalar yozuvchi va shoirlari Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon va bir qancha ijodkorlar asarlarini hisobga olmaganda



bolalar uchun qalam tebratayotgan yoshlar deyarli yo'q! Yo biz ularni ko'rmayapmizmi? Taniqli bolalar ijodkorlarining asarlari asosida suratga olingan bir-ikkita kinofilmlardan tashqari, deyarli «yalt» etadigan asarlar yo'q! Bunga sabab nima? Bolalar uchun yozilgan yaxshi asarlar yo'qligini yoki ssenaristlarning taqchilligini?

Elektron kutubxonalarimiz milliy va umuminsoniy g'oyalar bilan sug'orilgan asarlar bi-

lan boyitish, film, multfilmlarimizni sharqona odob-axloq, tarbiyaga xos tarzda suratga olish payti keldi. Kinolarimizni yot, buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan, o'tkir tafakkur bilan qurollantirish kerak. Buyuk ajdodlarimiz haqida multfilmlar, bolalar auditoriyasiga moslab kinofilmlar yaratish zarur. Prezidentimiz ilgari

suratlagan beshta tashabbusning birinchi yo'nalishi bo'yicha bolalar kinosini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratib, chekka joylardagi iste'dodli yosh qalamkashlarni kashf etib, yosh kinossenaristlarni bolalar olamiga mos kinofilmlar yaratishga jalb etishda amaliy chora-tadbirlarga o'tmasak, keyin kech bo'ladi.

Shu bilan birga, bolalar va o'smirlar uchun kino, multfilmlar yaratishda o'zaro hamkorlik asosida dastur ishlab chiqish zarur. Unga ko'ra, bolalar qalbidagi bo'shliqni to'ldira oladigan sifatli, milliy kinoasarlarni yaratish, internet saytlarini, «Bolajon» kanalini targ'ibot ishlariga keng jalb etish kerak. Bolalar teatrlarida milliy,

zamonaviy qahramonlar obrazini jonlantirish, bu boradagi ishlarda ota-onalarimizni ham hamkorlikka chorlash zarur.

Bolalarimiz ongini, qalbinii asraylik! Zero, bu qalb, bu ong ertaga o'zimizga xizmat qiladi.

Sanobar QULMIRZAYEVA,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining kintanqidi va tahlili yo'nalishi talabasi

FARG'ONALIK IXTIROCHILAR

Farg'ona viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazi o'quvchilari turli tanlovlarda ijodiy ishlari bilan ishtirok etishmoqda. Jumladan, yaqinda poytaxtimizda «Ijodkor bolalar» festivalining respublika bosqichi o'tkazildi. Mazkur festivalga Farg'ona viloyatidan ko'plab o'quvchilar qatnashib, iqtidor-u iste'dodlarini namoyish qildilar. Eh-he, bu festival qanchalar ko'p iste'dodlarni kashf etmadi, deysiz? Ekologiya, badiiy ijodiyot hamda texnik ijodkorlik yo'nalishlarida to'garaklarga qatnagan o'quvchilarning iste'dodini ko'rganingizda, siz ham ularga havas qilgan bo'lardingiz.

Festivalning «Ekodizayn» yo'nalishida qatnashgan Uchko'prik tumani BABM to'garak a'zosi, 20-umumta'lim maktabi o'quvchisi Nazokat Qodirova ustozlari ishonchini oqlagan bo'lsa, Quvasoydan kelgan 1-DIUM o'quvchisi Orzubek Alisherov yaratgan landshtaf

dizayni ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'ldi va u tanlovda faxrli o'rinni egalladi.

Usta-hunarmandlar azaldan yog'och-u mislarga «ikkinchi hayot» bag'ishlab, kishi ko'zlarini quvnatadigan buyumlar yasash bilan xalqning nazariga tushgan. Festivalning «Yog'och

o'yamakorligi» yo'nalishida Oltiariqning 38-umumta'lim maktabi o'quvchisi Dilmurod Foziljonovning yog'ochdan yasagan buyumlarini ko'rganlar uning ishlari betakrorligiga amin bo'lishdi.

Ayni damda, orangizda texnika va texnologiyalarga qiziqmaydigan o'quvchining o'zi topilmasa kerak? Tanlovning avtomodel yo'nalishida Quva tumanidan kelgan 44-umumta'lim maktabi o'quvchisi Xursandbek Azizov tengdoshlari oldida o'z mahoratini namoyish etdi. Robototexnika yo'nalishida qatnashgan Qo'qon shahridagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi Abubakir Azimov ham o'zi ixtiro qilgan model bilan qatnashdi.

Yana bir qo'qonlik tengdoshingiz - Qo'qon shahar BABMning «Liboslar dizayni» to'garagi a'zosi, 41-umumta'lim maktabi o'quvchisi Abbosxon



Sodiqovning ijodiy ishlari ham hay'at a'zolari tomonidan ko'rib chiqildi va u 2-o'ringa munosib deb topildi hamda XTV tomonidan diplom bilan taqdirlandi.

Ana, ko'rdingizmi, bolajonlar, inson qo'li misoli gul. U mo'jizalar yaratishga qodir.


Shunday ekan, siz ham qimmatli vaqtingizni boy bermang. Axir yuqoridagi sa'y-harakatlarning bari sizning kelajakda yetuk va barkamol inson bo'lib voyaga yetishingiz uchunligini aslo unutmang.

Ozoda TURSUNBOYEVA



OROMGOHDA BAYRAM BOSHLANDI

Ertalabki saflanishdan so'ng oromgoh rahbari Dildora opa Ismoilova bolalarga bugun «Vatanimni kuylayman» mavzusida tadbir o'tkazilishini aytdi. Bu taklif poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabi o'quvchilariga yoqib tushdi, axir qo'shiq aytib, raqsga tushishni kim ham istamaydi, deysiz?



Kim o'zarga o'ynagan bolalar aslida, bilimlarini sinovdan o'tkazishganini o'zlari ham sezmay qolishdi. Biz esa ularga «Balli», deya so'z oldik-u, gazeta ulashgan-cha do'stlashib qoldik. Axir, Vatan haqida to'liqlanib kuylagan yosh avlod yurtida uning uchun nashr etilayotgan gazetani o'qib borsa, bilimi yanada ortsa ortadiki, kam bo'lmaydi. Fikrimga qo'shilgan bir-biridan zukko o'quvchilardan biri - Diyora O'ktamova «Har kuni to'ga-

rakda turli rasmlar chizib, qo'shiqlar o'rganayotgan edik. Bugun esa bayram qildik, gazetalar oldik. Ustoz, har kuni bizga shunday yangi sovg'alar tayyorlab qo'ying», dedi jilmayib. Diyora qiz istaganidek, bolalarning ta'til kunlarini rang-barang o'tkazish maqsadida ta'lim maskanida «Besh tashabbus - besh imkoniyat» shiori ostida «Birgalikda kuylaymiz», «Yosh kitobxonlar», «Yosh chempionlar», «Yosh musavvirlar», «Mohir qo'llar», «Kompyuter savodxonligi» kabi turli to'garaklar tashkil etilgan. Doston Ahmadjonov, Mahfuza To'yliyeva, Shahri-

zoda Berdiyoro'va, Diyora Rahmatullayeva kabi o'quvchilar ushbu to'garaklarning faol a'zolaridir. Dostonbek maktabidagi bu sog'lomlashtirish maydonchasida suzish havzasi ham mavjudligidan xursand. Yozning issiq kunlarida suvga bir sho'ng'ib olish juda mazza-dal Xullas, bu maskandagi o'quvchilar yozgi ta'tilda ham ular haqida qayg'urayotgan Dildora Sharipova, Elmira Mavlyanova kabi ustozlaridan mamnun. To'garak rahbarlari esa yana yangi tadbirlar tashkilashtirish harakatalidir.

Sayyora QODIROVA

Shunday qilib, oromgohda bayram boshlandi. Unda ishtirok etgan turli to'garak a'zolari shunchaki ona Vatan

haqida she'r-qo'shiq aytishmadi, balki kim ko'p Vatan haqida she'r, maqollar aytish bo'yicha musobaqalashishdi.

diki, kam bo'lmaydi. Fikrimga qo'shilgan bir-biridan zukko o'quvchilardan biri - Diyora O'ktamova «Har kuni to'ga-



Lesson 28



apostrophe

RULES

Apostrophes serve two functions: they shows possession and indicate letters have been removed to form a contraction. They are not necessary when forming plural nouns or possessive adjectives.

Use an apostrophe + S to show that one person/thing owns or is a member of something.
e.g. Dilshod's room.

If the name ends in «s», it is correct to add another «s» to create the possessive form.
e.g. Tess's phone

We use an apostrophe after the «s» at the end of a plural noun to show possession.

e.g. The parents' bedroom.

If a plural noun does not end in «s», add an apostrophe «s» to create the possessive form.

e.g. Children's happiness

It's

all about the apostrophe.

When we combine two words to make a contraction, we will always take out some letters. In their place, we use an apostrophe.

e.g. They have = they've

You are not = you aren't
We will = We'll

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

VATANIM POSBONLARI



Sizlar ona Vatanning,
Bahodir posbonlari.
Baxti kulgan chamanning,
Mard, botir o'g'lonlari.

Biringiz serjantdarsiz,
Yurti suvgan kapitan.
Sarhadlari tinchini,
Sizga ishonar Vatani.

Siz bilan faxrlanar,
Ona Vatani, xalqimiz.
Siz borsiz, yurtimiz tinch,
Shudir bizning baxtimiz.

Inoyatoy RAHIMOVA,

Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 1-IMI o'quvchisi

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

II BOB. SAYOHATCHI TIMSOHLAR

– Yodda tuting! Tabiatga, ayniqsa, jonivorlarga bo'lgan shafqatsizlarcha munosabat – beshikda yotgan bolani bir hafta cho'miltirmaslik bilan barobardir (Ashula o'qituvchimiz Shopo'lat aka hikmatlaridan aynan ko'chirma).

– Jon, bolajonlarim, chumoli qo'lingizni chaqib tursa ham o'ldirmang, asalari chaqsa quvoning. Bu tabiatning sizga bergan in'omi. Axir, ular hammani ham chaqmaydi-ku! Undan ko'ra, siz tilbezorning chaqishidan ehtiyot bo'ling (Normamat tog'aning yoshlarga sabog'idan).

– Unutmang! Daraxtlar shoxi tagingizga ot bo'ladi, qo'y-qo'zilar qozoningizga go'sht bo'ladi. Shu sababli tabiatni asrang (Geografiya va tarix o'qituvchimiz Shotursun akaning Matrayimga nasihatidan).

Tabiatni asrash haqida bunday sermazmun gaplar ko'p. Unga rioya qilish esa o'zimizga bog'liq, to'g'rimi? Bu fikrlarni keltirganimning asosiy sababi navbatdagi hikoyam ham tabiat va undagi jonivorlar to'g'risida.

TO'G'RISO'Z MATRAYIM

Ushbu voqea yaqin yillarning eng shov-shuvli voqeasi sifatida tarix sahifalaridan joy olgani yoki olishi, shubhasiz. Unda ayniqsa, mening va do'stim Matrayimning ishtirok etishi hikoyamning haqqoniyligini ta'minlaydi. Sababi, men hech qachon yolg'on gapirmayman, Matrayim esa nafaqat uyida yoki maktabda, balki qishlog'imizda ham to'g'riso'zligi bilan dovrug' qozongan. Chunki u bo'yniga qilich kelganda ham (o'yinimiz chog'ida) rost gapirib, do'stlari qayerga berkinganini aytadi-qo'yadi!

Voqea aslida, bunday bo'lgan edi: mahallamiz bolalari bilan «urush-urush» o'ynayotgan edik. Biz Normamat tog'aning og'ligiga berkinib, dushmanni poylab yotgandik. Matrayim bilan Shoqosim esa «razvedkachi». Ularni dushmanlar tutib oladi-da, so'roq qiladi. Shoqosim mardlaracha:

– Men ularni qayerga berkinganini bilmayman, – desa, Matrayim:

– Nega unday deysan? Yolg'on gapirish gunoh. Men bilaman ular qayerdaligini, – deydi. Shoqosim: – Ablah, do'stlaringni sotmoqchimisana, desa: – Yo'q, Sizlar hammangiz meni «yolg'onchi» derdingiz, mana, vaqti keldi, o'zimni to'g'riso'zligimni

ASALARI

Asalari, bolari,
Guldan gulga qo'nadi.
Har biridan erinmay,
Rosa bolin so'radi.



Asalari, bolari,
«Viz-viz» etib uchadi.
Dasturxon ko'rki uchun,
Bizga asal yig'adi.

Oybek SULAYMONOV,
Buxoro viloyati, Jondor
tumanidagi 3-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

USTOZIM

Ilk bor maktabga kelganda,
Siz tomonga talpinganda.
Dilda bor edi hadik,
Biroz qo'rquv va shodlik.

Harflar so'zga aylandi,
So'z yurakka joylandi.
Qalbdan cheksizdir e'zoz,
Sog' bo'ling, doim ustoz!

Omina MIRSObitova,
poytaxtimizning Olmazor
tumanidagi 261-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

Bahrom AKBAROV, bolalar yozuvchisi

– Turasanmi, yoki yo'qmi? – Buvim jahl qila boshlaydilar. Endi tovushlari shundoqqina quloqlarim ostida yangraydi.

– Mayli, turmasang, turma! Matmusa tog'angnikiga akangni jo'nataman. Timsohlarning bilan akang urisha qolsin.

Hayron bo'ldim. – Qanaqa timsohlar?

– Qanaqa bo'lardi? – dedilar buvim. – Oddiy timsohlar. Oq dengizdan o'tib, Archalisoyga kelib qo'ylarni hapillatib tutib, paqillatib yeb ketayotgan timsohlar-da...

– Yo'g'e, Archalisoyda timsohlar nima qiladi? Yanglishayotgandirsiz...

– Hecham yanglishayotganim yo'q, – dedilar buvim ovozlarni biroz ko'tarib. – Timsohlar nima qiladi, qomini to'yg'izadi, keyin ketadi...

– Obbo, endi turmasam bo'lmaydi. Ustiga ustak, timsohlar bilan bo'ladigan uchrashuv va jang meni qiziqtirib qo'ydi. Yuz-qo'limni apiltapil yuvdim-da, buvimga salom berdim. Buvim menga yuzlanib:

– Anu ikki cnelak gilosni ol, tog'angnikiga olib borasan. Gulposhsha kelinoying kompot qilsin. Buvang tolga ulagan gilosning hosili. Tog'angga shunday degin, xo'pmi?! – Xo'p, buvijon. Aytganingizdek qilaman.

Shu payt hovli etagidan onamning tovushi eshitildi.

– Yo'l bo'lsin, Diyor! Qayoqqa otlanding?

– Tog'asidan xabar olib, timsohlarni tinchitib qaytib keladi, – dedilar buvim onamga beparvogina qarab.

– Voy, voy, voy. Oyjion, nimalar deyapsiz? Timsohlar bilan urishgani Diyor boshqa bola yo'qmi?

– Diyor eng yaxshi nomzod. Buni Matmusa ukam aytdi. U yana aytdiki, Diyor kamonda zo'r otar ekan. Bundan tashqari, musicha poylashda unga teng keladigani yo'q. Rogatkang esingdan chiqmasin, jon bolam. Meni uyaltiradigan ish qilma. Ularni yaxshilab ta'zirini ber. Ha, endi kelin timsoh degani tovuqday narsa. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi-ku, mard maydonda bilinadi. Ha, kelin, men Diyor qo'rqqoq bo'lsin, deb katta qilganim yo'q. Xo'pmi, aylanay?

– Timsoh degani tovuqday narsami? – Unday bo'lsa, mayli, – dedi onam buvimning gaplaridan keyin tamom bo'shshib. Men indamadim. Axir tirik timsohni ko'rgim kelsa, nima qilay? Buvim aytgan «qurollarim»ni oldim-u ikki chelak gilosni ko'tarib ko'chaga chiqdim. Qarasam, Matrayim eshik tagida meni poylab turibdi.

(Davomi bor)

isbotlamoqchiman, – deb biz yashiringan joyni aytib beradi. Ana to'g'riso'zlik-u mana to'g'riso'zlik! Shu-shu Matrayimga «rostgo'y» degan laqab qo'yildi, ya'ni Matrayim bilgich, yoki Matrayim to'g'riso'z.

DONISHQISHLOQQA SAFAR

Mayli, endi Sizga aytmoqchi bo'lgan voqeamga qaytsam. Bu voqea ta'til kunlarimning birida,



aniqrog'i, seshanba kuni boshlangan edi. O'zi seshanba dushanbadan keyin keladimi yoki chorshanbadan oldinmi? Mahallamiz bolalarining yarmi keyin desa, yarmi chorshanbadan oldin deydi. Menga esa baribir. Chunki hozir ta'tildaman. Darslar yo'q. Tushudingizmi? Nima uchun shu kun esingda qolgan, deysizmi? Chunki shu kuni sevimli va mehribon buvijonim «Bibi Seshanba» kuniga atab hovlimiz bir burchigida uch yoqadilar. Uch degani ikkita bo'ya cho'piga paxta o'raladi-da, tutatiladi. Buvimning aytishicha, achchiq tutunidan bezor bo'lgan ins-jinslar nafas ololmay, bo'g'ilib, hovlimizdan chiqib ketarmish. Buvim ham o'zimga o'xshab to'g'riso'z. Shu sababli men buvimning hamma gaplariga chippa-chin ishonaman...

Ana shu kuni kallayi saharda buvim meni uyg'ota boshladilar:

– Diyor! Hoy, Diyor! Tur, bolam, turaqol. Men o'sha siz yaxshi bilgan supa ustida boshimga ko'rpani tortib, indamay yotaveraman.

– Tur! Ketingga kun tushguncha yotaverasanmi?! – Buvimning tovushlari yaqinlasha boshlaydi. Indamayman.

Bugun yurtimizda sportning biror turi bilan shug'ullanmaydigan bolani uchratish qiyin. Juda bo'lmaganda, do'stlari bilan shaxmat-shashka o'ynashga qiziqmaydigan bola topilmasa kerak?! Sport nafaqat sog'liq, balki muvaffaqiyatlar garovi ekanini tengdoshlaringiz juda ko'p bora isbotlab berishgan. Ulardan yana biri navbatdagi g'oliblikka erishib, yurtiga sharaf keltirgan shaxmatchi Sevinch Alimovadir.

SEVINCH YURTDOSHLARINI SEVINTIRDI

Samarqand viloyati, Nurobod tumanidagi 75-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Sevinch yaqinda poytaxtimizda bo'lib o'tgan XV Osiyo chempionatida ishtirok etdi. Mazkur musobaqada u 18 ta davlat vakillaridan o'zib, 15 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida blits yo'nalishida 1-o'rinni qo'lga kiritdi va Osiyo chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi. Undan avval uch karra O'zbekiston chempioni, ikki karra kumush medal sohibi bo'lgan sportchi 2018-yili Gretsiyada o'tkazilgan jahon chempionatida ham faol qatnashgan edi. Bugungi yutug'i haqida esa tengdoshingiz shunday deydi:

– Ilk ustozim – dadam Yunus Ismoilov menga besh yoshimdan boshlab shaxmat

sirlarini o'rgatganlar. 7 yoshimdan sportning mazkur turi bo'yicha chempionatlarda qatnashganman. Bu yil men uchun muvaffaqiyatli yil bo'ldi.

Aslida, bunday xushxabarlar bilan deyarlik har kuni tanishasiz. Yozgi ta'til kunlarida yosh sportchilarimiz safi yanada ko'payib borayotgan bo'lsa, ajab emas. Biz esa sizga omad yor bo'lib, g'alaba qozonishingizni tilab qolamiz!

QIZLARXON



ONAM QADRIN ANGLAGAN KUNIM

Salom, aziz tengdoshlarim! Bugun sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan voqea orqali dunyodagi eng buyuk tuyg'u ona mehri ekanligini yana bir bor isbotlab bermoqchiman.

2017-yil oilamiz hayotida mudhish voqea sodir bo'ldi. O'sha kuni mehribon onajonim avtohalokatga uchragan edi. Uch oy davomida kasalxonada yotgan onam o'zlariga og'ir ahvolda bo'lsalar-da, biz – uch nafar farzandi haqida qayg'urishdan to'xtamasdi. Har kuni ularning hollaridan xabar olgani borganimizda, qo'llarimizni mahkam ushlab olishlari bizga juda ta'sir qilardi. Men ularning tezroq oyoqqa turishlarini, uzoq umr ko'rib baxtli hayot kechirishlarini, biz bilan faxrlanib yurishlarini juda-juda istardim. Shuning uchun har kuni ularga maktabdagi a'lo baholarimiz, yutuqlarimiz haqida gapirib berardik. Shifokorlarning sa'y-harakatlari bilan onam oyoqqa turdi.

Men Zulfiyaxonimga izdosh bo'lishga, ukalarim Asadbek va Anzurbek esa taekvondo bilan shug'ullanib, yutuqlarga erishib, onajonimni xursand qilishga harakat qilmoqdami. Chunki yaxshi kayfiyat ularning yanada tezroq sog'ayishlariga yordam beradi, nazarimda. Onamsiz o'tgan kunlarimizda men bu zotning o'rnini hech kim hech qachon bosa olmasligini angladim. Shu o'rinda onam kasalxonada yotgan kunlari otamning biz uchun chekkan zahmatlarini ham e'tirof etmoqchiman. Shunday ekan, eng aziz insonlarimizni qadrlab, e'zozlab yashaylik.

Asila ARALOVA,

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 48-umumta'lim maktabi o'quvchisi

G'OLIBLAR POYTAXTGA BORADI

Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi 3-umumta'lim maktabida o'quvchilarning yozgi ta'til davrini mazmunli tashkillashtirish maqsadida fan va sport to'garaklari faoliyati keng yo'lga qo'yilgan.

Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan beshta tashabbusning 2-yo'nalishi bo'yicha tuman hokimligi va Yoshlar ittifoqi hamkorligida tashkillashtirilgan tuman birinchiligida mazkur maktab sportchilari faol ishtirok etib, yetakchi o'rinlarni qo'lga kiritdi.

Gandbol bo'yicha musobaqada murabbiy Mohinur Habibova boshchiligidagi o'quvchilar jamoasi g'olib bo'ldi. 6-«A»dan Islombek Ergashev, 7-«B» sinf o'quvchilaridan Dilshod O'rinov, Suhrob To'rayev, Jonibek G'ulomov, Ozodbek Ravshanov, 8-«D» sinfdan Javlon va Amirbek Hamroyevlarning faol ishtiroki g'alabani ta'minladi.

Shaxmat bo'yicha 3-sinf o'quvchilaridan Sevinch A'zamova, Ozodbek Shoyimov, Aziz Hamroyev va Baxtbek Sadridinovlar yuqori natijalarni qo'lga kiritib, faxriy yoriq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

– Sportchi o'quvchilarimizning g'alabasi maktabimizni nafaqat tumanida, balki viloyatda o'ziga xos o'rnini belgilab berdi, – deydi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Rafiq Mirzoyev. – Yuqori natijaga erishgan o'quvchilar bilan ta'til davrida poytaxtga safar uyushtirishni rejalashtirmoqdamiz.



NURBEK

15-iyul 2019

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 71- umumta'lim maktabida 5 ta muhim tashabbusning 2-yo'nalishi bo'yicha tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 29-, 51-, 63-, 65-, 71-umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida sport musobaqalari tashkillashtirildi.

PESHQADAMLAR QUVONCHI

Futbol bo'yicha kechgan bahslarda 51-umumta'lim maktabi jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. 29-umumta'lim maktabi sportchilari 2-, 71-umumta'lim maktabi futbolchilari 3-o'rinni egalladi.

Voleybol bahslarida, yengil atletika musobaqasida yana 51- umumta'lim maktabi jamoasi bo'sh kelmadi.

Ayniqsa, shaxmat bo'yicha bellashuvda 51-umumta'lim maktabi jamoasiga teng keladigan topilmadi. 71-umumta'lim maktabi vakillari 2-, 63-umumta'lim maktabi o'quvchilari 3-o'ringa loyiq topildi.

G'olib va sovrindorlar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

O'rta Chirchiq tumanidagi 51-umumta'lim maktabi o'quvchilari 2-tashabbus bo'yicha bo'lib o'tgan viloyat ochiq birinchiligida umumjamoaa hisobida 1-o'rinni egalladi.

Shuningdek, ushbu maktabda bo'lib o'tgan qo'l jangi bo'yicha Xalq ta'limi ochiq chempionatida 120 nafar sportchi ishtirok etdi. Mezbon maktab sportchilari eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishdi.




BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Aziz bolajonlar! Yozgi ta'tilni maroqli o'tkazishingiz uchun sizga ko'ngilochar krossvordni havola etmoqdamiz. Boshqotirmani to'g'ri yechsangiz, aylana bo'ylab shakl ichida futbol guruhi va stadionning nomi kelib chiqadi.

Boshqotirma aylanma holatda soat mili yo'nalishida hal etiladi.

1. XX asrning eng yaxshi vengriyalik futbolchisi.
2. «Fantastik hakam» nomini olgan futbol o'yinlari hakami, Ermatov ...
3. «Spays Boy» laqabli inglizlik futbolchi, Devid.
4. «Bolakay» laqabli, jahon futbol yulduzi, ispan futbolchisi.

5. Sport kiyimlari firmasi.
 6. «JAR –2010» jahon chempionati ramzi.
 7. XX asrning eng yaxshi darvozabonlaridan biri, vengriyalik futbolchi.
 8. Braziliyalik himoyachi, Roberto ...
- KRIPTOGRAMMA.** Krossvord javob so'zlaridan foydalanib, raqamlar o'rnini harflar bilan almashtirsangiz so'z kelib chiqadi.
- 5/6-1/1-7/3-8/3-4/1-4/1-5/3-2/6-7/6-8/4-6/6-3/5-8/4-7/6-6/6-5/6-5/3



Tuzuvchi:
Anvar MIRZAZODA

Pazanda qizga!



SUZMALI YAXNA TAOM

Yoz chillasida inson organizmi suyuqlikka ko'proq ehtiyoj sezadi. Yog'li ovqatlar-u, shirinliklar borasida biroz ikkilansangiz-da, ammo yaxna taom tanovul qilishga yo'q demaysiz, albatta. Bugun sizlarga suzmadan yaxna taom tayyorlashni o'rgatamiz. O'ylaymizki, bu taom ham oilangizdagilarga xush yoqadi.

Buning uchun bizga 500 gramm suzma, 0,7 litr qaynatib sovutilgan suv, ikki dona pomidor, ikki dona o'rtacha kattalikdagi bodring, rayhon barglari, ikki dona qaynatilgan tuxum, ta'bg'a ko'ra tuz kerak bo'ladi.



pomidor, bodring, tuxumni o'rtacha kattalikda istalgan shaklda to'g'raymiz va idishga solamiz. Ish oxirida maydalangan rayhon barglari va tuz solib, yaxshilab aralashiramiz. So'ngra uni muzlatkichga bir soatga qo'yamiz. Yaxna taom dasturxoningizga fayz

Ishning avvalida suzmani chuqurroq idishga solib, ustidan asta-asta qaynab sovugan suv quyamiz. Suyuq holga kelgach,

bag'ishlaydi.

Yoqimli ishtahol

NARGIZA tayyorladi

AJOYIB DUNYO...

Name: Prakriti Mallu
Class: 8 (Eight)
Sex: B
School: Saurav Krishiya Mahavidyalaya




Handwriting is an essential skill for both children and adults. From the beginning of the age of technology, it remains the primary level of communication and knowledge assessment for students in the classroom. The demands for it are great, whether in the classroom or beyond. In 1992 study (Mittal & Lerman) found that 85 percent of all four sectors.

1. Nepallik 8-sinf o'quvchisi Prakriti Mallning husnixati dunyodagi eng chiroyli yozuv hisoblanadi.

Period	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72	73	74	75	76	77	78	79	80	81	82	83	84	85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	96	97	98	99	100										
H	Li	Be	B	C	N	O	F	Ne	Na	Mg	Al	Si	P	S	Cl	Ar	K	Ca	Sc	Ti	V	Cr	Mn	Fe	Co	Ni	Cu	Zn	Ga	Ge	As	Se	Br	Kr	Rb	Sr	Y	Zr	Nb	Mo	Tc	Ru	Rh	Pd	Ag	Cd	In	Sn	Sb	Te	I	Xe	Cs	Ba	Lanthanides	Hf	Ta	W	Re	Os	Ir	Pt	Au	Hg	Tl	Pb	Bi	Po	At	Rn	Fr	Ra	Actinides	Rf	Db	Sg	Bh	Hn	Mt	Lr	La	Ce	Pr	Nd	Pm	Sm	Eu	Gd	Tb	Dy	Ho	Er	Tm	Yb	Lu	Ac	Th	Pa	U	Np	Pu	Am	Cm	Bk	Cf	Es	Fm	Md	No	Lr

2. Mendeleyev davriy jadvalida uchramaydigan yagona lotin harfi bu – J.



3. Chili maktablarida yozgi dam olish dekabr oyining o'rtalarida boshlanadi va mart oyining boshida yakunlanadi.



4. Dunyodagi eng qadimgi maktab Angliyaning Canterbury shahrida joylashgan. «King's School» nomi bilan ataladigan bu maktabga, miloddan avval 597-yilda asos solingan.

Internet manbalari asosida
Sherali TOSHHIYOZOV tayyorladi

8

15-iyul 2019

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzilim va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi – 6268
Buyurtma – V 3603

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilindi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Toshirish vaqti – 18:00
Toshirildi – 18:00
Tel/faks: (99871) 244-63-08